



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**



***Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar-fevral***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 691 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dynamikasi (yanvar-fevral, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar, foizda)



2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 480,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 109,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 97,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,1%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 256,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 123,5%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 465,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,1 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari)

	Jami, mlrd so'm *	2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1480,8	109,8
Jizzax sh	365,9	109,6
tumanlar :		
Arnasoy	43,9	105,8
Baxmal	133,5	111,7
G'allaorol	127,0	110,0
Sh Rashidov	163,9	111,5
Do'stlik	77,0	107,8
Zomin	175,3	110,3
Zarbdor	86,5	108,2
Mirzacho'l	41,5	111,0
Zafarobod	39,5	106,3
Paxtakor	87,3	106,9
Forish	47,4	110,1
Yangiobod	16,7	109,8

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan respublikaning Forish (110,1 %), Sh Rashidov (111,5 %) va Baxmal (111,7 %) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 24,7 % bilan 365,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,1 % bilan 16,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 383,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 14,6 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,4 % ni tashkil etdi.

112,7 %	Do'stlik
113,0 %	Zarbdor
113,3 %	Baxmal
116,6 %	Jizzax sh
118,3 %	Sh.Rashidov
118,7 %	G'allaorol


Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 16,1 % ga o'sdi va 97,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,6 % ulushiga to'g'ri keldi.

145,1 %	Do'stlik
157,4 %	Zarbdor
170,1 %	Arnasoy
2,1 m. %	Yangiobod
6,3 m. %	Baxmal
7,1 m. %	Forish
17,3 m. %	Mirzacho'l



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sh.Rashidov (99,7 %), Paxtakor (99,5 %) va Zarbdor (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (18,8 %), Mirzacho'l (10,6 %), Jizzax shahri (7,2 %) va Forish (5,1 %) tumanlarida kuzatildi.



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Jizzax shahri**1 849,0****Forish****478,5****Arnasoy****893,3****Yangiobod****557,0****Baxmal****774,2****G'allaorol****673,1****Sh.Rashidov****666,1****Do'stlik****1 092,9****Zomin****964,8****Zarbdor****906,2****Mirzacho'l****743,2****Zafarobod****730,8****Paxtakor****1 068,4**

2025- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 972,6 ming so'm (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,6 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (1 849,0 ming so'm), Do'stlik (1 092,9 ming so'm) va Paxtakor (1 068,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	465,8	115,1
Jizzax sh	112,0	120,9
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	0,4	115,0
Baxmal	57,7	102,3
G'allaorol	66,4	127,7
Sh Rashidov	28,3	122,3
Do'stlik	29,5	111,6
Zomin	50,3	117,1
Zarbdor	38,3	114,2
Mirzacho'l	20,1	103,2
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	42,9	108,4
Forish	16,1	106,9
Yangiobod	4,0	121,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda (2025- yil yanvar-fevral)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 465,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 115,1 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 218,8 mlrd so'mni (128,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 247,0 mlrd so'mni tashkil etdi (107,5 %).

2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 218,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (81,1 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 81,1 mlrd so'm  37,1 %	Non va non mahsulotlari 21,1 mlrd so'm  9,6 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 7,9 mlrd so'm  3,6 %
Tovuq go'shti 9,6 mlrd so'm  4,4 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 14,1 mlrd so'm  6,4 %	Tuxum 10,1 mlrd so'm  4,6 %
Ziravorlar 12,8 mlrd so'm  5,9 %	Sut va sut mahsulotlari 8,0 mlrd so'm  3,7 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 18,0 mlrd so'm  8,2 %
Tuzlamalar 6,0 mlrd so'm  2,7 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 0,6 mlrd so'm  0,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 9,8 mlrd so'm  4,5 %

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 247,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 192,3 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 46,1 mlrd. so'mni, otlar – 2,7 mlrd so'mni, parrandalar – 0,6 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 104,9 mlrd so'm  42,5 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 44,6 mlrd so'm  18,1 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 42,8 mlrd so'm  17,3 %
Qo'ylar 43,4 mlrd so'm  17,6 %	Otlar 2,7 mlrd so'm  1,1 %	Echkilar 7,7 mlrd so'm  3,1 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,4 mlrd so'm  0,2 %	Tovuqlar 0,2 mlrd so'm  0,1 %	Quyonglar 0,0 mlrd so'm  0,0 %
Qushlar 0,0 mlrd so'm  0,0 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	821,1	113,6
Jizzax sh	26,4	116,3
tumanlar :		
Arnasoy	0,1	104,7
Baxmal	1,7	105,4
G'allaorol	3,2	112,5
Sh Rashidov	10,9	113,1
Do'stlik	1,4	105,2
Zomin	8,0	91,1
Zarbdor	1,9	108,5
Mirzacho'l	0,8	109,6
Zafarobod	0,9	108,2
Paxtakor	2,4	107,8
Forish	0,5	107,5
Yangiobod	0,7	104,2

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 821,1 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	1 029,1	64,2
Jizzax sh	436,9	53,7
tumanlar :		
Arnasoy	0,5	106,3
Baxmal	391,1	74,3
G'allaorol	78,4	93,9
Sh.Rashidov	37,4	31,0
Do'stlik	0,5	106,3
Zomin	76,0	152,7
Zarbdor	0,1	106,3
Mirzacho'l	2,1	106,3
Zafarobod	0,2	106,3
Paxtakor	1,4	106,3
Forish	4,2	108,4
Yangiobod	0,2	106,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (436,9 mlrd so'm), Baxmal (391,1 mlrd so'm) va G'allaorol (78,4 mlrd so'm)) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2025- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1029,1 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 64,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 532,1 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 165,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 470,0 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 37,4 %) ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 863,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 16,1 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 828,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,9 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd so'm *	2024- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	863,8	116,1
Jizzax sh	384,0	275,1
tumanlar :		
Arnasoy	1,3	116,8
Baxmal	10,8	57,0
G'allaorol	40,5	95,8
Sh Rashidov	97,7	93,3
Do'stlik	52,2	61,1
Zomin	121,8	69,4
Zarbdor	16,4	96,6
Mirzacho'l	2,8	104,8
Zafarobod	10,5	102,2
Paxtakor	11,2	101,2
Forish	51,7	65,2
Yangiobod	4,8	101,5

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 725 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Zomin (6 738,6 marta), Arnasoy (22,4 marta) va G'allaorol(12,7 marta) tumanlarida kuzatildi.